



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ABU NASR FAROBIYNING “SIYOSAT FALSAFASI” VA
G‘AZZOLIYNING “KIMYOI SAODAT” ASARI.

Nuriddinova Shahzoda Isomiddin qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti talabasi.

Email: sshahzoda65@gmail.com

Egamberdiyeva Yulduz Bahodir qizi

*Shahrisabz Davlat pedagogika instituti assisstant-
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning hayoti va ijtimoiy siyosiy sohadagi fikrlari va “Saodat Falsafasi” asarining mazmun mohiyati, undagi axloqiy qarashlar ham qisqacha yoritilgan. Shuningdek G‘azzoliyning falsafa ilmiga oid siyosiy qarashlari va asarlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Forobiy, ijtimoiy siyosiy, Saodat Falsafasi, siyosiy qarashlar, Kimyoi Saodat


Abstract: This article provides an overview of the life of Abu Nasr Al-Farabi and his thoughts on social and political matters. It also explores the content and significance of his work *The Philosophy of Happiness*, highlighting its ethical perspectives. Additionally, the article presents Al-Ghazali’s political views on philosophy and provides information about his work *The Alchemy of Happiness*.

Keywords: Abu Nasr Al-Farabi, socio-political, *The Philosophy of Happiness*, political views, *The Alchemy of Happiness*

Аннотация: В этой статье кратко освещены жизнь Абу Насра Аль-Фараби, его взгляды в социальной и политической сфере, а также содержание и сущность его труда “Философия счастья”, включая его этические воззрения. Кроме того, представлена информация о политических взглядах Аль-Газали на философию и его труде “Химия счастья”.

Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, социально-политический Философия счастья, политические взгляды, Химия счастья.

Sharq falsafasi va uning tarmoqlari bo‘lgan tavhid, kalom, tafsir, hadis, ruhiy va tabiiy fanlar o‘rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etib, buning o‘zaro bog‘liqliklarini kashf etgan, fan va din bir-biriga dushman emas, do‘st ekanligini dalillab bergan atoqli faylasuf Muhammad Abu Homid G‘azzoliy asarlari jahondagi juda ko‘p faylasuf, donishmandlarning e’tiborini jalb etib kelgan. Abu Nasr Forobiy ilgari surgan va o‘z asarlarida ko‘targan barcha muammolar o‘tmishga tegishli emas, uning ko‘plab g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb va tubdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan Forobiy falsafasini o‘rganish dolzarbligini hech qachon yo‘qotmaydi. Garchi Farobiy falsafasining yaratilganiga 1100 dan ko‘p vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, Farobiy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

g'oyalari, hikmatli so'zlari, qarashlari o'z qadr qimmatini yo'qotmay, yosh avlod va butun jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Mutafakkirimizning ijtimoiy siyosiy va falsafiy merosi dunyo mamlakatlari bo'ylab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. "Tatimat Sivan-ul-hikma" (XII asr), Ibn Kiftiyning "Torix al-ulama" (XII asr) "Nigoristoni Gaffori" (XVII asr) kabi tarixchilarning asarlarida Farobiyning hayoti, ilmiy, ijtimoiy siyosiy ijodi o'z ifodasini topgan. Endi Abu Nasr Forobiyning "Siyosat Falsafasi" asariga kelsak, mutafakkir siyosatni falsafiy nuqtai nazaridan, ya'ni siyosatni fan sifatida tushunishni chuqur asoslab berdi. Natijada siyosiy falsafa yaqin va O'rta Sharqda falsafaning mustaqil tarmog'i sifatida o'zining ilmiy va falsafiy tasdig'ini oldi. Saodat falsafasi insonning baxtga erishish yo'llarini, hayotning ma'nosi va maqsadini tahlil qiluvchi falsafiy yo'nalishdir. Bu tushuncha Sharq va G'arb falsafasida turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, asosiy e'tibor insonning ichki tinchligi, axloqiy mukammallik va jamiyatdagi o'rniga qaratiladi. Forobiy siyosiy falsafasi nafaqat siyosiy muammolarni tushunishning nazariy asosi sifatida, balki siyosiy jarayonlarning tabiati, munosabatlarning rivojlanish an'anasini tahlil qilishga qaratilgan siyosiy tushuncha sifatida ham qiziqish uyg'otadi. Chuqur insonparvarlik va ratsionalistik xarakterga ega bo'lgan Forobiy siyosiy konsepsiyasi mutafakkirning Sharqiy va Qadimgi yunon madaniyatining falsafiy va axloqiy-siyosiy yutuqlarini ijodiy rivojlantirishi asosida shakllangan. Forobiy falsafaning mantiqiy-nazariy apparatini sezilarli darajada boyitdi va shu asosda uning siyosiy tizimini ishlab chiqdi. Forobiy siyosiy falsafaning o'ziga xos va ratsionalistik tizimini o'rganish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

- Birinchidan, Forobiyning ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlari siyosiy maqsadga muvofiqlik prinsipi asosida aniq tarixiy sharoitlarda vujudga kelgan.
- Ikkinchidan, Forobiy siyosiy falsafasi Sharq va qadimgi yunon madaniyatlarining sintezi va o'zaro ta'siri asosida shakllangan.
- Uchinchidan, Forobiy falsafiy tizimi o'rta asrlardagi ijtimoiy fikrning eng yuqori darajasini ifodalaydi. Mutafakkir ontologiya muammolarini ko'rib chiqishda yangi, o'ziga xos qirralarni kiritishga muvaffaq bo'ldi: mavjudlik, materiya, materiya va shakllarning nisbati haqidagi ta'limotga epistemologiya, mantiq va ayniqsa fanlarni tasniflash masalalarini ishlab chiqishga erishdi.
- To'rtinchidan, Abu Nasr Forobiy o'z davri uchun siyosiy falsafa siyosati va vazifalarini, uning boshqa fanlar orasida o'rnini tubdan yangi, chuqur talqin qildi. Siyosiy falsafa, mutafakkirning fikriga ko'ra, siyosat to'g'risida bilimlarni rivojlantirishi, siyosiy bilimlarni o'zlashtirishga va shakllantirishga yordam berishi kerak, bu siyosiy voqelik va xilma-xil munosabatlar, ularning doimiy o'zgarishi haqida ma'lum tasavvurga yordam beradi. Faylasuf siyosat jamiyat va inson hayotida bajarishi kerak bo'lgan rol va vazifalarni aniq va ishonchli tarzda ochib berdi.
- Beshinchidan, Forobiyning siyosiy falsafasi ko'p qirrali bo'lib, u eng muhim siyosiy muammolarni qamrab oladi, ularni yaqin aloqada va o'zaro bog'liqlikda ko'rib





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

chiqadi. Forobiy siyosiy falsafasida jamiyat va davlat muammolari juda muhim o‘rin tutadi, ularni tahlil qilishga faylasuf alohida e‘tibor beradi. Forobiy insoniyat jamiyati va davlatining paydo bo‘lishi, evolyutsiyasi, tuzilishi va harakatlantiruvchi kuchlarining sabablarini ratsionalistik tushuntirishga intiladi, uning turlarini tasniflaydi, davlat va davlat hokimiyatini boshqarishning ideal shakllarini belgilaydi.

Imom g‘azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlari Imom g‘azzoliy qoldirgan ijtimoiy-falsafiy meros. IX-XII asrda ma‘naviy-axloqiy taraqqiyotida, islomning buyuk allomalardan, ulug‘laridan mutafakkir Mavlono Homid Imom G‘azzoliy bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta‘limoti ta‘lim – tarbiya sohasida ahamiyatga ega Imom Muhammad g‘azzoliyning asarlari sho‘rolar davrida falsafa fanida o‘qitilmay, ta‘qiqlab kelindi. G‘azzoliy“ taxallusi haqida turli fikr bor. Ba‘zi olimlar g‘azzol (ip yigiruvchi) oilasida tug‘ilgan, shu sababdan G‘azzoliy taxallusini olgan desa, boshqalari esa G‘azola (Tus yaqinidagi qishloq)da tug‘ilgan, shuning uchun taxallusi G‘azoliy deb hisoblaydilar. Uning fiqhga doir “Bosit”, “Vojiz”, “Vosit”, aqidaga doir “Qavoid al-Aqoid” (Aqidalarning qoidalari), “ar-risolat al-qudsiya” (Qudsiya risolasi), mutasavviflar uchun “Ihya ulum ad-din” (Diniy ilmlarni tiriltirish), “Mukoshafat ul-qulub” (Qalblar kashfiyoti) asarlari mashhur. Shuningdek, “Tahofut al-falasifa” (Faylasuflarni rad etish), “Kimyo-i-saodat” (Saodat kimyosi), “Maqosid al-falasifa” (Faylasuflarning maqsadlari) asarlari olim ijodida muayyan o‘rinni egallaydi. “Kimyoi Saodat” Imom G‘azzoliy ning eng mashhur asarlaridan biridir. Ushbu asarda islomiy axloq, tasavvuf va ma‘naviy kamolot haqida yozilgan. Ushbu asar “Saodatning kimyosi” deb tarjima qilinadi. Asarda Inson qalbining poklanishi, haqiqiy baxtga, kamolotga erishish yo‘llari tushuntirib o‘tilgan. Imom G‘azzoliyning yana bir mashhur asarlaridan biri “Ihyo ulumid-din” asaridir. “Kimyoi Saodat” esa ushbu asarning qisqartirilgan shakli. Bu kitobda insonning ruhiy tarbiyasi, Allohga yaqinlashish yo‘llari haqida so‘z boradi.

“Kimyoi saodat”ni forschadan turkiy tilga o‘g‘irgan (Sharqiy Turkistonda) Ho‘tan podshohi Azizshoh saroyida xizmat qilgan ma‘rifatchi olim Muhammad Isoning tarjimaga muqaddimasida yozishicha, Rasuli Akram Baytul - Quddusdan me‘rojga ko‘tarilgan vaqtda Bani Isroil payg‘ambarlaridan Muso alayhissalom peshvoz chiqib, rasulullohga izzat-hurmatini bildiradi. So‘ng Muhammad alayhissalomdan: “Siz bir hadisi sharifingizda “Mening ummatlarimdan chiqqan ulamolar Bani Isroil payg‘ambarlaridek” - debsiz. Shu so‘zingizni nima bilan isbotlaysiz?” - deb so‘rabdi: Shunda Muhammad alayhissalom “Hujjatul islom” unvoni bilan mashhur bo‘lgan imom Muhammad G‘azzoliyning ruhini chaqirib, Muso alayhissalomga yuzlashtiribdi. Ikkalasi ozroq suhbatlashgach, Muso payg‘ambar islom ulamolarining Isroil payg‘ambarlariga tengligini tan olib, hazrati Mustafoga yana ta‘zim qilibdi. Tabiiyki, islom olamining har bir olimi ham bunday yuksak sharafiga loyiq emas. Lekin Sharq xalqlari tarixida rasululloh aytgan martabaga sazovor allomalarimiz ko‘pdir. Shulardan biri Navoiydan to‘rt asr ayval Xurosonda, Tus yaqinidagi G‘azzola qishlog‘ida tavallud topgan va asrlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

davomida G'arb va Sharq falsafasining tamal toshini qo'yib kelgan Zayniddin Muhammad Abu Homid G'azzoliydir. Imom G'azzoliy mashaqqatli riyozatlarga to'la umri davomida islom falsafasi, iymon-e'tiqodni yuksaklarga ko'taruvchi ko'pgina buyuk asarlar yaratdi. Uning "Ihya al-ulum ad-din" (Diniy ilmlarning tirilishi), "Makrsidul falosifa" (Faylasuflarning maqsadlari), "Tahofutul falosifa" (Faylasuflar yanglishuvi), "Fazoyixul botiniya" ("Botiniylikning rasvoligi"), "Ajoyibul-qulub", "Qistosul mustaqim" (Haqiqat mezonlari) asarlari arab, fors, turk, olmon, lotin, rus tillarida nashr etilgan. O'z asarlari bilan G'azzoliy falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatib, keyinchalik Ibn Rushd, Ibn Xaldun, Immanuel Kant, Rene Dekart, David Yum, Georg Gegel kabi mutafakkirlarning etishib chiqishiga maydon ochib berdi. Xususan, G. Gegel G'azzoliy haqida "Mantiq va metafizikaga doir asarlar muallifi, sharqona buyuk aql egasi" degan. G'azzoliy "Kimyoi saodat"da bunday hikoyani keltiradi: Bir guruh ko'rlar yo'lni ko'rmay, chetroqda ko'zalar turgan joydan o'ta boshladilar va "Kimdir yo'limizga to'siqlar qo'yibdi" deb shikoyat qiladilar. Aslida ular ko'rliги tufayli to'g'ri yo'ldan adashgan edilar. Darvoqe, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asaridagi ko'pchilik hikoyatlar "Ihyo"dan: "Nafs" (ruh) chavandozga; badan otga o'xshaydi. Chavandozning ko'rliги otning ko'rligidan zararliqdir. Yana: Aql qalbga qo'shilsa fazilatga aylanadi. Aks holda aql-fazilat emas"

Xulosa: Imom G'azzoliyning "Kimyoi Saodat" asari va Farobiyning "Saodat Falsafasi" asari insonning ruhiy va axloqiy kamolotga erishish yo'llarini ochib beruvchi bebaho manbadir. Unda haqiqiy baxt-moddiy boylik yoki dunyoviy lazzatlarga emas, balki qalb pokliги, Allohga yaqinlik va ezgu amallarga bog'liqligi ta'kidlanadi. Asarda ilm va amaliyot, tavba va taqvo, dunyo va oxirat orasidagi muvozanat kabi muhim mavzular yoritilgan bo'lib, har bir inson o'z nafsini tarbiyalash orqali haqiqiy saodat sari yo'l olishi kerakliги uqtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Abu Homid G'azzoliy, "Kimyoi Saodat". "Munir" nashriyoti, -Toshkent 2021
- Yo'ldoshev F. A. Abu Nasr Farobiyning "Fi-maoniy-al-aql" asarida gnoseologik masalalar.// Monografiya.T.
3. ABU HOMID G'AZZOLIY "KIMYOI SAODAT" (Ruh haqiqati) "Adolat" Toshkent:2005.
4. Abu Homid G'azzoliy. Ixya ulum ad-din asari.T., 2004;
5. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat ul-qulub asaridan.T., 2002;
6. Abu Homid G'azzoliy. Qiyomat va oxirat asaridan.T., 2004
7. Yo'ldoshev F. A. Abu Nasr Farobiyning "Fi-maoniy-al-aql" asarida gnoseologik masalalar.// Monografiya.T.

